



## ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

## SEMANTIC ANALYSIS OF VERBS COMMONLY USED IN THE MEDIA

**Yusuf Khojakulov**

senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

**Zilola Abdullayeva**

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** Media, BBCPersian *فارسی* (بی‌بی‌سی), □□□□□ (Axbor-e ruz-e Iron), semantics, level, analysis.

**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23

**Abstract:** Our article analyzes the verbs that are often used in the media in Iran, in particular, *ایران* (Axbor-e ruz-e Iron) and BBCPersian (*فارسی بی‌بی‌سی*). An analysis of these verbs is given with examples.

## OAVDA KO'P QO'LLANILADIGAN FE'LLARNING SEMANTIK TAHLILI

**Yosif Xo'jaqulov**

katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**Zilola Abdullayeva**

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** OAV, BBCPersian (*فارسی بی‌بی‌سی*), *اخبار روز ایران* (Axbor-e ruz-e Iron), semantika, daraja, tahlil.

**Annotatsiya:** Maqolamizda Erondagi OAV, xususan, *اخبار روز ایران* (Axbor-e ruz-e Iron) va BBCPersian (*فارسی بی‌بی‌سی*) manbalarida ko'p qo'llaniladigan fe'llar tahlil qilinadi. Mazkur fe'llarning tahlili misollar bilan keltiriladi.

## СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ, РАСПРОСТРАНЕННЫХ В СМИ

**Юсуф Ходжакулов**

старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

**Зилола Абдуллаева**

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Медиа, BBCPersian (فارسی بی بی سی), اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron), семантика, уровень, анализ.

**Аннотация:** В нашей статье анализируются глаголы, которые часто используются в средствах массовой информации в Иране, в частности, اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron) и BBCPersian (فارسی بی بی سی). Анализ этих глаголов дается с примерами.

## KIRISH

Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulletin va boshqalar) va yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko'rsatilgan.

## ASOSIY QISM

Globallashuv jarayonini boshidan kechirayotgan hozirgi jamiyatning biror bir sohasini OAV tilisiz tasavvur etish qiyin. OAV imkoniyatlarining kengligi ularning faoliyati va taraqqiyoti, auditoriyaga ta'sirini har tomonlama chuqur o'rganishni talab etadi. Hozirgi vaqtda jamiyat son sanoqsiz OAV orqali yangiliklardan voqif bo'lishdek katta va tezkor imkoniyatlarga ega bo'ldi. Axborot qanday tarzda qabul qilinmasin, u, baribir, til vositalari orqali o'z ifodasini topadi.

O'zbekistodagi mashhur OAVlarga "Qalampir.uz", "Darakchi.uz", "Amerika ovozi", "Kun.uz", "Daryo.uz" kabi saytlarni misol sifatida keltirish mumkin. Eronda esa Farsi VOA, اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron), BBCPersian (فارسی بی بی سی), RFI فارسی rfi.fr/fa/, MBC Persia, Iran Press, ایران|IRAN kabi kanal va saytlarni sanab o'tsa bo'ladi.

Tadqiqotimizda biz internet sayti va telegramdagi axborot kanallari, ya'ni اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron), BBCPersian (فارسی بی بی سی)ga murojaat qildik. Kanallarda berilgan

axborotlarni o'rganish jarayonida fe'llarning semantik maydoni keng ekanligiga guvoh bo'ldik. Maqolamizda shu kanallarda ko'p uchragan fe'llarni semantik va ko'p qo'llanilishi jihatidan o'rganib chiqamiz.

Quyida fe'llar tahlili bilan ketma-ket tanishtiriladi:

**منتشر کردن/شدن** fe'li qo'llanilish darajasi va semantik tahlili:

BBC Persian (فارسی بی بی سی) kanalida 10 000 martadan ziyod

اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron) kanalida 3 500 martadan ortiq qo'llanilgan.

Bu fe'l- "e'lon qilmoq", "namoyish etmoq", "chop etmoq" va "tarqalmoq" ma'nolarida keladi. Misollar:

1. "E'lon qilmoq" ma'nosida ifodalanishi:

**ما هدف کامل را نمی دانیم و پنتاگون جزئیات را امروز منتشر خواهد کرد**

Biz to'liq maqsadni bilmaymiz va Pentagon tafsilotlarni bugun e'lon qiladi.

براساس آخرین آمارهای رسمی منتشر شده، تاکنون تلفات زلزله در ترکیه از ۴۰ هزار

تن فراتر رفته است

So'nggi e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, Turkiyadagi zilzila qurbonlari soni 40 ming kishidan oshgan.

2. "Namoyish etmoq" ma'nosida kelishi:

**ناسا عکس جدیدی از پرتوهای پنهان خورشید منتشر کرد**

NASA quyoshning yashirin nurlarining yangi suratini namoyish etdi.

3. "Chop etilmoq" ma'nosini anglatishi:

**روزنامه جام جم مطلبی در مورد دانستنی هایی در مورد عصاره طعم دهی گوشت و مرغ**

**منتشر کرده است**

"JamJam" gazetasida go'sht va tovuqning xushbo'y ekstrakti haqida nimalarni bilish kerakligi haqida maqola chop etildi!

4. "Tarqalmoq" ma'nosida keluvchi holat:

**این ویدیو از شعارهای شبانه دیروز اول اسفند در تهران در شبکه های اجتماعی منتشر**

**شده است**

Kecha, 1-mart kuni Tehrondagi tungi shiorlar aks etgan ushbu video ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi.

**اعلام کردن** fe'li qo'llanilish darajasi va semantik tahlili:

BBC Persian (فارسی بی بی سی) 17 000 dan ziyod

اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron ) 19 000 dan ortiq

Bu fe'l "ma'lum qilmoq", "e'lon qilinmoq" ma'nolarida keladi. Misollar:

پلیس اعلام کرد که این کامیون روی ریل قطار گیر افتاده بود و در پی این حادثه به کسی آسیب نرسید و راننده داخل آن نبود.

Politsiya ushbu yuk mashinasi poyezd relslarida qolib ketganini va bu hodisa natijasida hech kim jabrlanmagani va haydovchi ichida bo'lmaganini ma'lum qildi.

طالبان اعلام کرده که توزیع پاسپورت را از چهارشنبه هفته آینده از طریق آنلاین در کابل و ولایت‌های افغانستان از سر می‌گیرد

Tolibon kelgusi chorshanba kunidan boshlab Kobul va Afg'oniston viloyatlarida pasportlarni onlayn tarzda tarqatishni qayta boshlashini ma'lum qildi.

در فروردین ماه زمان دریافت خودروها اعلام خواهد شد

Avtomobillarni qabul qilish vaqti aprel oyida e'lon qilinadi. (yoki ma'lum qilinadi)

پخش کردن/شدن fe'li qo'llanilish darajasi va semantik tahlili:

BBC Persian (فارسی بی‌بی‌سی) - 2 000 dan ortiq

اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron ) - 2 000 dan ziyod

Bu fe'l – "efirga uzatish", "tarqalish" va "sepish" ma'nolarda keladi. Misollar:

1. "Efirga uzatish" ma'nosida ifodalanishi:

نسخه کامل این مستند به زودی از صدا و سیما پخش خواهد شد

Tez orada ushbu hujjatli filmning to'liq versiyasi radio orqali efirga uzatiladi.

2. "Tarqalmoq" ma'nosini anglatishi:

اولین فیلم از لحظه دستگیری چند خفتگی که فیلمشان در فضای مجازی پخش شده

بود

Videosi internetda tarqalgan ba'zi uyquga yuruvchilar qo'lga olingan paytdagi birinchi video.

3. "Sepmoq" ma'nosida kelishi:

عبدالله همراه با خانم و دختر دو ماهه‌اش وقتی می‌خواست برای نخستین بار شب را

در جنگل‌های پاناما سپری کند، دور خیمه کوچک‌شان مایعی شبیه شربت را پخش کرد

Abdulloh rafiqasi va ikki oylik qizi bilan birinchi marta Panama o'rmonlarida tunamoqchi bo'lganida, ularning kichkina chodiri atrofiga siropga o'xshash suyuqlik sepib qo'ydi.

کشته شدن fe'li qo'llanilish darajasi va semantik tahlili:

BBC Persian (فارسی بی‌بی‌سی) 7 500dan ziyod

اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron) 3 000dan ortiq

Bu fe'l- "o'ldirilmoq" va "halok bo'lmoq" ma'nolarida keladi. Misollar:

1) "O'ldirilmoq" ma'nosida qo'llanishi:

2)

اجساد دو شهروند آمریکایی که در مکزیک ربوده و سپس کشته شده بودند به مقامات آمریکایی تحویل داده شد

Meksikada o'g'irlab ketilgan va keyin o'ldirilgan ikki amerikalik fuqaroning jasadi Amerika rasmiylariga topshirildi.

3) "Halok bo'lmoq" ma'nosida kelishi:

یک قایق حامل پناهجویان در سواحل جنوبی ایتالیا غرق شد و بیش از ۶۰ نفر از جمله یک نوزاد کشته شدند

Italiya janubiy qirg'oqlari yaqinida qochqinlarni olib ketayotgan qayiq cho'kib ketdi va 60 dan ortiq odam, jumladan bir chaqaloq halok bo'ldi.

او و ولودمیر زلنسکی در آرامگاه سربازانی که در ۹ سال گذشته در جنگ با روسیه کشته شده‌اند حضور یافتند و ادای احترام کردند

U Vladimir Zelenskiy bilan so'nggi 9 yil ichida Rossiya bilan urushda halok bo'lgan askarlar qabristoniga tashrif buyurib, ularga hurmat bajo keltirdi.

حمله داعش به شرق سوریه/ ۵۳ نفر کشته شدند

Suriya sharqida ISHID hujumi natijasida 53 kishi halok bo'ldi.

fe'li qo'llanilish darajasi va semantik tahlili: **آغاز شدن**

BBC Persian (فارسی بی‌بی‌سی) 6 000dan ortiq

اخبار روز ایران (Axbor-e ruz-e Iron) 6 000dan ziyod

Bu fe'l- "boshlanmoq" ma'nosida keladi. Misollar:

سفر آقای آستین به منطقه دو روز پیش با دیدار از اردن آغاز شد

Janob Ostinning mintaqaga safari ikki kun avval Iordaniyaga tashrif bilan boshlangan.

دور دوم مذاکرات رئیس سازمان انرژی اتمی ایران و مدیرکل آژانس بین المللی انرژی اتمی آغاز شده است

Eron Atom energiyasi tashkiloti rahbari va Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik bosh direktori o'rtasidagi muzokaralarning ikkinchi bosqichi boshlandi.

پیش فروش بلیت‌های نوروز آغاز شده و تا ۲۹ اسفند ادامه دارد. قیمت بلیت اتوبوس برای نوروز افزایش نمی‌یابد

Navro'z chiptalarini oldindan sotish boshlandi va 29-martgacha davom etadi. Navro'z bayramida avtobus chiptalari narxi oshmaydi.

fe'li qo'llanish darajasi va semantik tahlili: **دادن از دست دادن**

BBC Persian (فارسی بی‌بی‌سی) 11 000dan ziyod

Axbor-e ruz-e Iron (اخبار روز ایران) - 6 000dan ortiq

Bu fe'l- "qo'ldan boy bermoq", "ayrilmoq", "halok bo'lmoq" (jonidan ayrilmoq) ma'nolarida keladi.

1. "Boy bermoq" ma'nosini ifodalashi:

تیم النصر با شکست ۱ بر ۰ در دیدار شب گذشته مقابل الاتحاد صدر جدول لیگ عربستان را از دست داد

"Al-Nasr" jamoasi kecha "Al-Ittihad"ga qarshi o'yinda 1:0 hisobida mag'lub bo'lib, Saudiya Ligasi turnir jadvalida peshqadamlikni boy berdi.

2. "Halok bo'lmoq" ma'nosini anglatishi:

هر دو روز ۳ نفر در تصادفات پایتخت جان خود را از دست می‌دهند

Poytaxtda har ikki kunda 3 kishi baxtsiz hodisalardan halok bo'layapti.

از آن سال تا کنون، با بروز قحطی صدها هزار نفر جان خود را از دست داده‌اند و میلیون‌ها یمنی آواره شده‌اند.

O'sha yildan beri ocharchilik tufayli yuz minglab odamlar hayotdan ko'z yumdi, millionlab yamanliklar o'z uylarini tashlab ketishdi.

3. "Ayrilmoq" ma'nosida kelishi:

فرناز قاضی‌زاده، در سال گذشته میلادی برادر و پدر خود را به طور ناگهانی از دست داد

Farnaz G'ozizoda o'tgan yili to'satdan akasi va otasidan ayrildi.

fe'li qo'llanish darajasi va semantik tahlili: **کردن سفر کردن**

BBC Persian (فارسی بی‌بی‌سی) 3 500+

Axbor-e ruz-e Iron (اخبار روز ایران) - 4 000+

Bu fe'l- "tashrif buyurmoq" (yoki "safar qilmoq") ma'nosida keladi.

گزارش شده است که سلطان هیثم پادشاه عمان قرار است به زودی به ایران سفر کند

Ma'lum qilinishicha, Ummon qiroli Sulton Haysam tez orada Eronga tashrif buyuradi.

وزیر خارجه کشورمان شامگاه شامگاه سه شنبه به ترکیه سفر کرد

Seshanba kuni kechqurun mamlakatimiz tashqi ishlar vaziri Turkiyaga tashrif buyurdi.

مدیر آژانس اتمی: احتمالاً در ماه فوریه به ایران سفر خواهم کرد

Atom agentligi direktori: Men fevral oyida Eronga boraman.

Quyida o'rganilgan fe'llar va ularning tarjimalari jadval asosida keltiriladi:

| No | Fe'l           | Tarjimasi                                            | BBCPersian<br>(فارسی بی بی سی)<br>manbasida<br>ishlatilish<br>darajasi | اخبار روز ایران<br>(Axbor-e ruz-e<br>Iron )<br>manbasida<br>ishlatilish<br>darajasi |
|----|----------------|------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | منتشر کردن/شدن | E'lon qilmoq, namoyish etmoq, chop etmoq, tarqalmoq  | 10 000+                                                                | 3 500+                                                                              |
| 2. | اعلام کردن     | Ma'lum qilmoq                                        | 17 000+                                                                | 19 000+                                                                             |
| 3. | پخش کردن/شدن   | Efirga uzatmoq, tarqalmoq, sepmoq                    | 2 000+                                                                 | 2 000+                                                                              |
| 4. | کشته شدن       | O'ldirilmoq, halok bo'lmoq                           | 7 500+                                                                 | 3 000+                                                                              |
| 5. | آغاز شدن       | Boshlanmoq                                           | 6 000+                                                                 | 6 000+                                                                              |
| 6. | دست دادن از    | Ayrimoq, qo'ldan boy bermoq, (+jon ro) halok bo'lmoq | 11 000+                                                                | 6 000+                                                                              |
| 7. | سفر کردن       | Tashrif buyurmoq, safar qilmoq                       | 3 500+                                                                 | 4 000+                                                                              |

### XULOSA

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, OAV tilida qo'llaniladigan fe'llar ma'naviy jihatdan yaqin, lekin bir-biridan farqlanadi. Jamlangan misollarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Tadqiqotimiz davomida Eron OAVlari, xususan, BBCPersian (فارسی بی بی سی) va (Axbor-e ruz-e Iron ) manbalari bilan tanishildi;
2. Fe'llarning semantik doirasi keng;
3. Tahlil etilgan misollar fe'llarning semantik ma'nolarini ajratishga imkon berdi;
4. Keltirilgan statistikasiga asoslanadigan bo'lsak, har ikki kanalda fe'llarning qo'llanilish darajasi farqlandi;
5. Rasmiy xabarlarda qanday fe'llar ko'proq qo'llanilishi o'rganildi va jadvashtirildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni-  
<https://lex.uz/docs/-1106870>

2. Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тили: Ўқув қўлланма; – Т.: О‘зkitobsavdonashriyot, 2019. 172 б.
3. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. – М., 1970.
4. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М., 2001.
5. <http://bbcpersian.com>
6. <https://t.me/bbcpersian>
7. <https://t.me/iranfnews>
8. <https://lex.uz>
9. <https://t.me/iranfnews/237771>
10. <https://t.me/iranfnews/238657>
11. <https://t.me/iranfnews/238208>
12. <https://t.me/iranfnews/238756>
13. <https://t.me/bbcpersian/161725>
14. <https://t.me/iranfnews/239092>
15. <https://t.me/bbcpersian/161945>
16. <https://t.me/iranfnews/240667>
17. <https://t.me/iranfnews/224860>
18. <https://t.me/iranfnews/222750>
19. <https://bbc.in/3YHZ4T6>
20. <https://bbc.in/3JuuMOu>
21. <https://t.me/bbcpersian/162394>
22. <https://bbc.in/3XLYOkY>
23. <https://t.me/iranfnews/238526>
24. <https://bbc.in/3ZMxXq5>
25. <https://bbc.in/3ZkUTNo>
26. <https://t.me/iranfnews/240342>
27. <https://t.me/iranfnews/240680>
28. <https://t.me/iranfnews/240245>
29. <https://bbc.in/40hoHe3>
30. <https://t.me/bbcpersian/163533>
31. <https://bbc.in/3ITl6eW>
32. <https://t.me/iranfnews/240404>
33. <https://t.me/iranfnews/235931>